Talabalarning fanga oid kompetensiyasini refleksiv texnologiyalar vositasida takomillashtirishning metodik jihatlari (“ona tili o‘qitish metodikasi” fani misolida)

Xo‘janiyozova Gulhayo Ilhomovna – Abu Rayhon Beriniy nomidagi Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda refleksiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan hamda fanini o‘qitish jarayonida refleksiv texnologiyani qo‘llashning amaliy jihatlari aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiv texnologiya, refleksiv faoliyat, fanga oid kompetensiya, metodik kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, ona tili o‘qitish metodikasi, refleksiv topshiriq, kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация. В статье изложены теоретико-методологические основы использования рефлексивных технологий для формирования предметных компетенций будущих учителей начальных классов в рамках учебного курса «Методика преподавания родного языка», а также освещены практические аспекты применения рефлексивных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: рефлексивная технология, рефлексивная деятельность, предметная компетенция, методическая компетенция, начальное образование, методика преподавания родного языка, рефлексивное задание, профессиональная подготовка.

Abstract. This article outlines the theoretical and methodological foundations of using reflective technologies to develop the subject-specific competencies of prospective primary school teachers in the course "Methodology of Teaching the Mother Tongue," and highlights the practical aspects of applying reflective technology during the teaching process.

Keywords: reflective technology, reflective activity, subject-specific competence, methodological competence, primary education, methodology of teaching the mother tongue, reflective task, professional training.

KIRISH. Bugungi oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak o‘qituvchini faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki uning egallagan bilimlarini real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qo‘llay olishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtira olishini ta’minlash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bir vaqtning o‘zida til hodisalarini tushuntiruvchi, o‘quvchining nutqiy faoliyatini tashkil etuvchi, metod tanlovini amalga oshiruvchi va o‘quv natijalarini baholovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu nuqtayi nazardan, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida talabaning “bilaman” darajasidan “bilaman – qo‘llayman – tahlil qilaman – baholayman – takomillashtiraman” darajasiga ko‘tarilishi muhimdir. Bunday jarayonni tashkil etishda refleksiv texnologiyalar alohida metodik imkoniyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA METODLARI. Refleksiya tushunchasi lotincha *reflexio* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ortga nazar”, ya’ni amalga oshirilgan faoliyatga qaytib, uni anglash ma’nosini ifodalaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan refleksiya talabaning o‘z faoliyati, uning maqsadi, bajarilgan harakatlari, natijalari va yuzaga kelgan qiyinchiliklarni anglash hamda keyingi faoliyatini shu tahlil asosida qayta tashkil etish jarayonidir. Tadqiqotlarda refleksiya faoliyatning tarkibiy qismi sifatida qaralib, u shaxsga o‘z harakatlarini kuzatish, tanqidiy tahlil qilish va zarur holatda o‘zgartirish imkonini berishi qayd etiladi.

Refleksiv texnologiya oddiygina dars oxirida “Bugun nimani bildingiz?” degan savolni berish bilan cheklanmaydi. Uning mohiyati talabaning o‘quv faoliyatini ongli ravishda kuzatishi, faoliyat natijasini baholashi, muammoning sababini aniqlashi va yangi faoliyat yo‘lini belgilashida namoyon bo‘ladi. Masalaning dolzarbligi ham aynan

shundan kelib chiqadi, ya’ni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining fanga oid kompetensiyasi tayyor metodik tavsiyalarni yod olish orqali emas, balki metodik qaror qabul qilish, uning sababini tushuntirish va o‘z faoliyatini takomillashtirish orqali shakllanadi.

Tadqiqotning metodik asosi sifatida refleksiv texnologiyaning quyidagi ketma-ketligi belgilandi: 1. Maqsadni anglash → 2. Faoliyatni bajarish → 3. Qiyinchilikni aniqlash →4. Faoliyatni tahlil qilish →5. Yechimni qayta loyihalash →6. Refleksiv xulosa chiqarish.

Bu ketma-ketlikda refleksiya mashg‘ulotning faqat yakuniy qismiga emas, balki butun o‘quv faoliyatiga singdiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Refleksiya masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq vaqt davomida o‘rganib kelinmoqda. Refleksiyaning psixologik tabiati, uning o‘zini anglash va faoliyatni tahlil qilish bilan aloqasi B.G. Ananyev, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev kabi olimlarning ilmiy qarashlarida turli jihatlardan yoritilgan. Mazkur yondashuvlarda refleksiya shaxsning o‘z faoliyatiga ichki nuqtayi nazardan qaytishi, uni tahlil qilishi va qayta anglashiga imkon beruvchi mexanizm sifatida talqin etiladi.

O.S. Anisimovning refleksiv faoliyatga oid qarashlarida esa muammoli vaziyatni tadqiq etish, faoliyatni tanqidiy tahlil qilish, zarur yordam vositalarini aniqlash, kelgusi harakatni prognozlash va amaliy faoliyatga qaytish ketma-ketligi muhim o‘rin tutadi. Bunday ketma-ketlik refleksiyani mavhum psixologik hodisadan aniq pedagogik faoliyat mexanizmiga aylantirish imkonini beradi.

G.S. Pyankova refleksiv ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifalarini talabaning o‘z tajribasi orqali ta’lim jarayonini anglashiga sharoit yaratish, refleksiv faoliyatni

egallashiga imkon berish, ichki bilish motivatsiyasini kuchaytirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish zaruratini anglash bilan bog‘laydi.

Tadqiqotlarda refleksiv ta’limning dialogik xarakteri ham alohida ko‘rsatiladi. Bunda uch xil yo‘nalish muhim: o‘qituvchining o‘z faoliyati bilan ichki dialogi, o‘qituvchining talaba faoliyatini anglashga qaratilgan dialogi va talabaning o‘z “Men”i bilan ichki dialogi.

Mazkur nazariy qarashlarni ona tili o‘qitish metodikasiga tatbiq etishda muhim jihat shundan iboratki, talaba faqat “qaysi metod to‘g‘ri?” degan savolga javob berishi emas, balki “Nima uchun aynan shu metodni tanladim?”, “Bu metod qaysi yosh xususiyatiga mos?”, “Kutilgan natijaga erishmadim, bunga nima sabab bo‘ldi?”, “Keyingi mashg‘ulotda nimani o‘zgartiraman?” kabi savollar orqali o‘z metodik faoliyatini tahlil qilishi kerak.

Shu sababli refleksiv texnologiyani fanga oid kompetensiyani takomillashtirishning yordamchi usuli emas, balki talabaning metodik faoliyatini tashkil etuvchi yaxlit texnologik yondashuv sifatida qarash mumkin.

NATIJALAR. “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanida refleksiv texnologiyadan foydalanish talabaning o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonini faol boshqarishiga imkon beradi. Bunda o‘qituvchi tayyor metodik yechimni taqdim etuvchi shaxs emas, balki talabaning metodik izlanishini tashkil etuvchi pedagogik hamkor vazifasini bajaradi.

Refleksiv texnologiyaning amaliy modeli quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Bosqich	**Talaba faoliyati**	**O‘qituvchi faoliyati**
1. Maqsadni anglash	“Men nimani o‘rganishim va bajara olishim kerak?”	Maqsadni aniqlashtiradi

Bosqich	Talaba faoliyati	O‘qituvchi faoliyati
2. Faoliyat	Metodik topshiriqni bajaradi	Yo‘naltiradi
3. Muammolashtirish	Qayerda qiynalganini aniqlaydi	Muammoni aniqlashga yordam beradi
4. Tahlil	“Nima sababdan bunday bo‘ldi?”	Savollar orqali tahlilni chuqurlashtiradi
5. Qayta loyihalash	Yangi metodik yechim ishlab chiqadi	Muqobil yechimlarni muhokama qiladi
6. Refleksiv xulosa	O‘z faoliyatiga baho beradi	Qayta aloqa beradi

Bunday yondashuvda talaba o‘z faoliyatining obyekti emas, balki subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv ta’limda talabaning mustaqil ravishda maqsad, vazifa va harakat usullarini belgilashi muhimligi ta’kidlangan. Masalan, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan “Boshlang‘ich sinflarda fe’lni o‘rgatish metodikasi” mavzusida talabalarga quyidagi vaziyat beriladi:

Metodik vaziyat: 3-sinf o‘quvchilariga fe’l so‘z turkumini tushuntirish uchun talaba “Fe’l – harakat va holatni bildiruvchi so‘z turkumi” degan ta’rifni doskaga yozdi va o‘quvchilarga bir nechta gapni ko‘chirib, fe’llarning tagiga chizishni topshirdi. Mashg‘ulot yakunida ayrim o‘quvchilar fe’lni ot va sifatdan farqlay olmayotgani aniqlandi.

Talabaga savol beriladi: “Muammo nimada?”

Talaba avvalo o‘z faoliyatini tahlil qiladi:

- Men mavzuni tushuntirdimmi?
- O‘quvchi faoliyatini yetarli darajada tashkil qildimmi?

- Ta’rifni yodlatishga ko‘proq e’tibor qaratmadimmi?
- O‘quvchi fe’lni real nutqiy vaziyatda qo‘lladimi?
- Men tanlagan topshiriq 3-sinf o‘quvchisining yosh xususiyatiga mos edimi?

Shundan so‘ng talaba muammoning sababini aniqlaydi: darsda nazariy ta’rif ustuvor bo‘lgan, amaliy-nutqiy faoliyat esa yetarli darajada tashkil etilmagan.

Keyingi bosqichda u darsni qayta loyihalaydi. Masalan:

1-topshiriq. Berilgan so‘zlardan harakatni bildiradiganlarini ajrating: *kitob, yugurdi, chiroyli, yozdi, daftar, o‘qidi, baland, kuldi.*

2-topshiriq. “Bugun men...” jumlasini uch xil fe’l bilan davom ettiring.

3-topshiriq. “Bola bog‘da...” gapini fe’llar yordamida uch xil variantda davom ettiring. Masalan:

Bola bog‘da yugurdi.

Bola bog‘da ishladi.

Bola bog‘da o‘ynadi.

4-topshiriq. “Qaysi gapda harakat aniqroq ifodalangan?” savoli asosida o‘quvchilarning javoblari tahlil qilinadi.

Bu jarayonda talaba metodik qarorining natijasini ham baholaydi.

Shu tariqa refleksiya oddiy “dars yoqdimi?” savolidan metodik tahlil darajasiga ko‘tariladi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan quyidagi refleksiv topshiriqlarni berish mumkin.

1. Men nimani tanladim? Talabaga bitta metodik vaziyat beriladi va undan dars metodi, topshiriq yoki baholash usulini tanlash so‘raladi. Keyin *Nima uchun aynan shu usulni tanladingiz?* degan savol beriladi.

Bu topshiriq metodik qarorning sababini asoslash kompetensiyasini rivojlantiradi.

2. Xatoni top va qayta loyihala. Talabaga boshlang‘ich sinf ona tili darsining qisqa fragmenti beriladi. Masalan, o‘qituvchi yangi mavzuni 15 daqiqa davomida tushuntirdi. O‘quvchilar yozib bordilar. Keyin 10 ta test topshirig‘i bajarildi.

Talaba quyidagi savollarga javob beradi:

1. Ushbu faoliyatda qanday metodik muammo mavjud?
2. O‘quvchi faoliyatini qanday kuchaytirish mumkin?
3. Qaysi topshiriqni qo‘shgan bo‘lardingiz?
4. Dars fragmentini qayta loyihalang.

3. Bir topshiriq – uch yechim. Masalan, “Ot so‘z turkumini o‘rgatish” uchun bitta o‘quv topshirig‘i ishlab chiqiladi. Talaba uni reproduktiv, qisman izlanishga asoslangan. Ijodiy ko‘rinishlarda qayta ishlab chiqadi.

So‘ng quyidagi savolga javob beradi: Qaysi variant qaysi ta’limiy maqsadga mos va nima uchun?

Bu topshiriq metod tanlash va metodik qarorni asoslash kompetensiyasini rivojlantiradi.

MUHOKAMA. Refleksiv texnologiyaning muhim xususiyati shundaki, u talabaning tayyor bilimni o‘zlashtirishidan ko‘ra, o‘z faoliyatining qanday kechganini anglashiga katta e’tibor qaratadi. Bunda “Nimani bilaman?” savoli “Bilimimni qanday qo‘lladim?”, “Nima sababdan bu usulni tanladim?”, “Natija nima bo‘ldi?”, “Qanday qilib yaxshiroq natijaga erishish mumkin?” kabi savollar bilan to‘ldiriladi.

Shu jihatdan fanga oid kompetensiyaning shakllanishini quyidagi zanjir asosida tasavvur qilish mumkin: bilim → qo‘llash → muammo → tahlil → metodik qaror → qayta qo‘llash → refleksiv xulosa.

Mazkur zanjirda refleksiya alohida yakuniy bosqich bo‘lib qolmaydi. U keyingi faoliyat uchun yangi boshlang‘ich nuqtaga aylanadi.

XULOSA. Refleksiv texnologiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan fanga oid kompetensiyasini takomillashtirishning samarali metodik vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Uning asosiy imkoniyati talabaning o‘quv faoliyatini tashqi nazorat qilishdan ko‘ra, o‘z faoliyatini anglash va boshqarishga yo‘naltirilishida namoyon bo‘ladi. Binobarin, refleksiv texnologiya talabaning nazariy bilimlarini metodik faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Refleksiv topshiriqlar orqali talaba o‘z metodik qarorining sababini tushuntirish, natijasini baholash va zarur holatda uni qayta ishlab chiqishga o‘rganadi.

“Ona tili o‘qitish metodikasi” fanida refleksiv texnologiyadan foydalanish maqsadni anglash, metod tanlash, pedagogik vaziyatni tahlil qilish, muammoga yechim topish va o‘z faoliyatini baholash kabi kompetensiyaviy harakatlarni bir butun jarayonga birlashtiradi.

Refleksiya mashg‘ulotning faqat yakuniy qismida emas, balki maqsadni belgilashdan boshlab, faoliyatni bajarish, qiyinchilikni aniqlash, natijani tahlil qilish va faoliyatni qayta loyihalashgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda tashkil etilganda metodik jihatdan yuqori samaradorlikka ega bo‘ladi. Refleksiv texnologiya talabaning “tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi” pozitsiyasidan “o‘z faoliyatini anglovchi, tahlil qiluvchi va takomillashtiruvchi” subyekt pozitsiyasiga o‘tishini ta’minlaydi. Bu esa bo‘lajak

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish uchun muhim pedagogik shartlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. – М.: Угрешская типография, 2012. – 382 с.

2. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – М.: Интор, 1996. – 544 с.

3. Ibragimov A.A. O‘qituvchilar kasbiy rivojlanishiga ilmiy-metodik hamrohlik texnologiyasi // Современное образование. – 2017. – №10. – B. 30–41.

4. Пьянкова Г.С. Развитие профессиональной рефлексии: учебное пособие. – Красноярск: Красноярский государственный педагогический университет им. В.П. Астафьева, 2014. – 276 с.

5. Пьянкова Г.С. Рефлексивные методы организации самостоятельной работы студентов: учебное пособие. – Красноярск: Красноярский государственный педагогический университет им. В.П. Астафьева, 2015.

6. Степанов С.Ю. Рефлексивная практика творческого развития человека и организаций. – М.: Наука, 2000. – 174 с.

7. Степанов С.Ю., Семёнов И.Н. Психология рефлексии: проблемы и исследования // Вопросы психологии. – 1985. – №3. – С. 31–40.

8. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 206 b.

9. Xalilova N.I. Refleksiv texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning psixologik jihatlari // Zamonaviy ta’lim. – 2018. – №7. – B. 18–21.

10. G‘ulomov X.R., Raimov va boshqalar. Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2004.